

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

P.S.Otaqulov	
Geografik nomlarni o'rganishga ijtimoiy-ekologik yondashuv	92
B.M.Dehqonov	
Andijon viloyati ekin yerlari monitoringi va uni baholash	97
X.Sh.Djo'raboyeva	
An'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishida geografik omillarning o'rni.....	101
	ILMIY AXBOROT
M.K.Usmonaliyeva	
Chor Rossiyasi hukmronligi davrida turkiston o'lkasida milliy matbuotning vujudga kelishi.....	105
O.N.Fozilova	
Oybekning bolalarga atalgan hikoyalarida qahramon talqini.....	108
J.J.Mamatisakov	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirishning innovatsion - pedagogik modeli	113
N.B.Yuldasheva	
Ingliz va o'zbek tillari matnlaridagi paremiyalarni tadqiq etishning muxim jihatlari.....	121
G.O.Abdujalilova	
Ekspozitsiya va uning badiiy-estetik funksiyasi	124
X.Z.Umarova	
Epistolary lines: the transformative power of letters in saul bellow's novel «Herzog»	127
D.Hakimova	
Yosh voleybolchilarning maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish	130
G'.M.Alamov	
Xalq o'yinlari va milliy bellashuvlarning o'quvchi-yoshlarni tarbiyalovchi muhim omil sifatidagi ahamiyati	135
A.K.Xudayberdiyev, M.J.Usmonova	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'li-ta'lim sifatini oshirish.....	139
S.R.Xoliqov	
Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviyati va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullari	143
M.A.Алиева	
Неомифологизм в творчестве дмитрия сергеевича мерещковского	147
A.Y.Ergashev	
Yangi O'zbekistonda pedagogning maqomi: ijimoiy-falsafiy tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari	152
Z.X.Oxunova	
Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-antropologik mazmuni	155
X.J.Isomiddinov	
Yoshlar tafakkurini rivojlantirishning tarixiy-falsafiy jihatlari.....	158
R.D.Mustayev	
Vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy mohiyati	161
B.I.Muxtoraliev	
Ilk hikoyalaridagi ijodiy o'ziga xoslik	165
D.S.Abdugodirov	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	171
M.M.Azizov	
Methodology of optimizing sports and health programs through scandinavian walking	174
A.U.Xamidjanov	
Yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo'y ko'rsatkichlarini model xususiyatlari o'rganish asosida yosh erkin kurashchilarni saralash va yo'naltirish metodikasi.....	181
G.T.Dadamirzayeva	
Inson salomatligi va ruhiyatiga musiqaning ta'siri.....	191

OYBEKNING BOLALARGA ATALGAN HIKOYALARIDA QAHRAMON TALQINI

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ГЕРОЯ В РАССКАЗАХ ОЙБЕКА ДЛЯ ДЕТЕЙ

INTERPRETATION OF THE HERO IN OIBEK'S FAIRY TALES FOR CHILDREN

Fozilova Odina Nabiyevna¹

¹Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi, f.f.b.f.d (FhD)

Annotatsiya

Maqolada Muso Toshmuhammad Oybekning bolalarga atab yozilgan hikoyalari tadqiq etilgan. Uning "Mukammal asarlar to'plami"ning o'n ikkinchi tomida birinchi bor chop etilgan "Gulnor opa", "Fanorchi ota", "Musicha", "O'yin uchun o'q", shuningdek, chet el bolalar hayotiga bag'ishlangan "Miskin bolalar", "Qonli barmoqlar" hikoyalari tahlili orqali badiiy uslub va mahorat masalalari tadqiq etilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются рассказы Мусы Ташмухаммада Айбека, написанные для детей. «Сестра Гульнор», «Фанарчи ота», «горлица», «Пуля для игры», а также «Бедные дети», «Окровавленные пальчики», посвященные жизни иностранных детей, были опубликованы впервые в двенадцатом томе его «Собрания совершенных произведений» Вопросы художественного стиля и мастерства исследуются посредством анализа рассказов.

Abstract

The article examines the stories of Musa Tashmuhammad Aybek written for children. "Sister Gulnor", "Fanorchi Ota", "Musicha", "Bullet for the Game", as well as "Poor Children", "Bloody Fingers", dedicated to the life of foreign children, were published for the first time in the twelfth volume of his "Collection of Perfect Works". issues of artistic style and skill are researched through the analysis of stories.

Kalit so'zlar: hikoya, bolalar adabiyoti, uslub, mahorat, portret, peyzaj, tafsil, erk, xotin-qizlar.

Ключевые слова: рассказ, детская литература, стиль, мастерство, портрет, пейзаж, деталь, свобода, женщины.

Key words: story, children's literature, style, skill, portrait, landscape, detail, man, women.

KIRISH

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek o'zbek bolalar hikoyachiligi taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shgan. Uning yigirma tomlik "Mukammal asarlari to'plami"ning o'n ikkinchi tomida birinchi bor chop etilgan "Gulnor opa" (1930), "Fanorchi ota" (1930), "Musicha" (1930), "O'yin uchun o'q" (1943) hikoyalari fikrimizning dalilidir.

Ma'lumki, Oybek o'z davrning peshqadam adiblari ijodiga bee'tibor bo'lmagan. U Abdulhamid Cho'lponning "Oydin kechalar"(1922), "Qor qo'ynida lola"(1923), "Klio'patra"(1923), "Novvoy qiz" (1928) kabi qator hikoyalarida xotin-qizlar erki mavzusiga asosiy e'tibor beradi. Oybek o'z hikoyalarini Cho'lponni ana shu asarlaridan ta'sirlanib yaratgan. Chunki ushbu asarlarning ifoda usuli, ruhi, mavzusi bir-biri bilan yaqin va mushtarakligi fikrimizni isbotidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Oybekning "Gulnor opa" hikoyasi voqealari XX asr bolalari hayotiga bag'ishlangan. Voqealar muallif – yosh Badal tomonidan bayon etib boriladi. Taxminan 10-14 yoshdagi bolalar – Badal, Vali va Fattoh ko'cha changitib to'p o'ynasharkan, tasodifan qora koptoklari g'iz etib yuqorilaganicha qaytib pastga tushmaydi. Ma'lum bo'ldiki, to'p qurimsizlikda nom chiqargan Shokir akaning bog'chasiga uchib tushgan. Shokir akaning qandayligini bilgan bolalarning holati hikoyada shunday ifodalanadi: "O'yinchilar turgan joylarida qotib qolishdi: "– Ah, qanday yaxshi to'p edi. Shokir akaning bog'chasiga tushdi-ya. Essizgina...

Fattoh kattalardek qo'lini orqasiga tashlab: Tag'in tushib o'tirma, bilasan-ku Shokir akaning fe'lini, xuddi oyog'ingni sindiradi, – deb nasihat qilganday bo'ldi"[1,9]. Shokir akaning bog'chasiga kirish juda qo'rqinchli bo'lsa-da, o'ynab to'ymagan to'pining alami Badalni jin ko'chadan kiriladigan ariqning ombori orqali ichkariga o'tishga majbur etadi. Hikoyada Shokir akaning bog'chasi shunday tasvirlanadi: "Bir yarim tanobcha joyni egallagan bog'cha baland devorlar ila o'ralgan, ichida o'rik, shaftoli, gilos, ko'ksulton va shunga o'xshaganlar. Bu mevalardan biron donasini chet kishi ko'rmas va kimga sotiladiganligini-da hech kim bilmadi. Hatto, "anjir bilan anor gulini to'kib, ko'zga ilinadigan bo'lganida Shokir aka sanab qo'yadi", – deb gaplashedi mahalladagilar.

O'ylab-o'ylab ming qo'rquv bilan bog'chaga kirgan Badalning holati "Rang-barang kiyimlarga belangan kelinchak gullarning ustida, jimjima qafasdonli savadonlarni va bog'chani poylagan kabi har yoqqa tez-tez qarab qo'yardim"[1,10] tarzda ifodalanadi. Maysalar orasidan nihoyat to'pini topib ko'ngli xotirjam bo'lgan Badalning ko'zi birdan Shokir akaning qizi Gulnor opa bilan Turdi sartaroshning o'g'li Asadning birga devorga chirmashib o'sgan tolning tagida turganliklarini ko'radi. Ikki sevishganlar holati shunday tasvirlanadi: Gulnor opaning ustida bir oz to'zishga boshlagan atlas ko'ylak, sarpinka ro'moli yelkasida. To'la, oppoq bilagi Asadning bo'yniga o'ralgan, dam Asadning chiroyli yuziga qaraydi, dam boshini yigitning keng, kuchli ko'kragiga qo'yadi" [1,10].

"Anglashilmagan bir sirning og'irligi" ko'kragini siqqan bola vaqtincha yashirinib yotgan o'tlar orasidan chiqadi. Badalning "ko'chadan o'tgan har bir qizning paranjisidan tortish, hatto, hassasiga suyangan kampirlarning boshiga ilishdan zavq oluvchi to'polonchi ko'ngli" jimgina chiqib ketishiga yo'l qo'ymaydi. U sevishganlarni bir cho'chitish uchun emaklab borib "Gulnor opani bilib oldim" deya qichqiradi. Keyingi holat "Asad bir nimadan qattiq qo'rqib, arqonni uzgan ot kabi o'zini bir yoqqa otdi, qo'li qaltirar, kuch yo'q. Baland devorga sakraydi, yiqilib tushadi, yana turib butun kuchi ila irg'iydi, yana yiqiladi". Gulnor bir zumda bog'chaning ikkinchi yog'iga o'tgan bo'lsa-da, qo'rqqanidan bog'cha eshigining zanjirini tushirolmasdan tipirchilardi" [1,10] deya tasvirlanadi.

Badal o'zining bu qilmishidan shunday sevindiki, bog'ning onboridan tashqariga qanday chiqib ketganini bilmay qoldi.

Hikoyaning ikkinchi qismi voqealari bolaning kechqurun sutga Gulnor opaning onasi Xayri xola oldiga sutga chiqqanidan so'ng boshlanadi. Xayri xola Badaldan qizi Guli bilan maydondan o'tin olib chiqishini so'raydi.

Gulnor opa Badal bilan o'tin uchun borar ekan, Badaldan ko'rganlarini hech kimga aytmasligini so'raydi. Uning holati "Yirik, qora ko'zlaridan marvarid tomchilar uning chiroyli yuziga yumalab tusha boshlamish, uzun kipriklari namlanmishdi" tarzda tasvirlanadi. Balaning beg'ubor, samimiy ko'ngli bu holdan to'lqinlandi. Ushbu segining istiqboli tumanli ekanligi tabiatning kun botar payti tasviri bilan uyg'unlikda berilishi bejiz emas. Badal ana shu paytda o'z qilmishidan afsuslandi: "Qarshimda yig'lab va yalinib turgan Gulnor opa qalbimga ham g'urur, ham alam solardi, Gulnor opani qanday qilib ishontirishni bilmas edim".

– Yo'q, endi hech "bilib oldim" demayman, hech kimga aytmayman, hech kimga, yig'lamang. Gulnor opa, yig'lamang, – dedim. Tovushimda yalinish, o'tinish bor edi [1,11].

Gulnor uning bu so'zlaridan sevinib ketdi, usti bir oz kirlagan ikki chaqim qandni Badalga cho'ntagidan olib berdi. Badal qizning so'zlari va holatidan o'zidagi hayratni shunday ifodalaydi: "Maydondan o'tinlarni tashib bo'lgach, Xayri xoladan "limmo-lim" sutni olib ko'chaga chiqdim. "Nega muncha yalinadi, nega Xayri xola o'ldiradi", deya o'ylab ketarkan, oqshom menga Gulnor opaning baxti, erki kabi bo'sh va sirli ko'ringandi" [1,11].

NATIJAR VA MUHOKAMA

Oybekning "Fanorchi ota" hikoyasi voqealari ham o'tgan asr boshlarida Toshkent ko'chalarida bo'lib o'tadi. Hikoya "Tor, qiyshiq ko'chaning o'ksiz oqshomini Tursunqul akaning churuk darvozni tepasiga o'tqazilgan bir fanorning titrak nurlarigina yoritar edi. Uni har kun kechqurun past bo'yli, burishiq yuzli bir chol kelib, yoqib ketar edi. Biz uni "Fanorchi ota", der edik [1,12]. So'ng riviy-muallif – bola fanorchi ota qiyofasi bilan o'quvchilarni tanishtiradi: "Juda yuvvosh, indamas kishiydi, kichkina narvonchasini chaqqon qo'yib, allaqanday ustalik bilan chiqar, qo'ltig'idan kir ro'molchasini olib, avaylab fanor oynalarini artardi. Fanorni yoqqach yerga tushib, obkashdek bukilgan yelkasiga narvonchasini qo'yib, birpasda ko'zdan yo'qolar edi"[1,12].

Fanor qurilgan paytda barcha sevingan bo'lsa, keyinchalik unga barcha e'tiborsiz bo'lib qolgan, bolalar o'yinchog'iga aylangan. Bolalar kuniga fonorga do'ppilarini otib kiydirishardi. Fonor esa piston qadalgan va turli iplar bilan bezatilgan do'ppini kiyib chiroyli bir tusga kirganidek, bolalar mashara qilayotgandek bo'lardi. Shunda bolalar qo'llariga tosh, kesak olib, fonorning oyna ko'zlarini sindira boshlaydilar. Fanorchi ota ham haftada uch-to'rt marta fonorga "yangi kuzoynak" taqib ketadigan bo'ldi. Lekin bolalarga biror marta hech narsa demaydi. Uning bu qilg'ini o'yinqaroq bolalar yoqtirishmas, tutib olish uchun poylasa, hatto birontamizni tutib ursa ekan, der edik. Ammo ularning tilaklari amalga oshmadi. Bir kun, namozshom vaqtida bolalarning eng qo'rqmaydigan, eng battoli Qosim cho'loq Fanorchi otani keladigan vaqti bo'lganligi, fanorini sindirib uning nima qilishi bilan qiziqayotganini aytdi. Bolalar tomonidan otilgan tosh–shishalar ostidagi fanor holati shunday

tasvirlanadi: "... fanor to'rt tarafi qulagan uy kabi ajava tusda, yana bir tomonga qiyshayib turar edi"[1,13].

Yozuvchi fanorchi otaning fanorga yaqin kelib, uning yoniga chiqish holatini jonlantirish vositasida ifodalaydi: "Uzoqdan "Fanorchi ota"ning bukilgan kichkina qomati yaqinlasha boshladi. Narvoncha yelkadan tushib, ta'zim ila devorga suyandi". Bolalar o'z qilgan ishlaridan kerilib, ba'zilari piq-piq kulishar edi. Lekin fanorchi otaning holati ularga ularga zid: "Chol kasal odamga o'xshab, sekin-sekin pastga tushdi. O'siq qoshlari tagida qisilib yotgan ko'zlari ila hammamizga yalingansimon qaradi-da, mayin bir tovush bilan:

— Tentak bolalarim, bu qanday gap. Fanarga tegmasanglar, bir narsa o'ladimi, u yuqorida, sizlar pastda o'ynay beringlar-da"[1,13].

Fanorchi ota so'ng bosiqlik bilan bolalarga yosh ekanliklari, ko'zlaringiz o'tkir qorong'i ham, yorug' ham baravar ekanini, qari-qartanglar uchun esa chiroq judayam kerakligini aytdi. So'ng o'ziga tikilib turgan bolalarga qarata shunday deydi: "— Tunov kuni kechasi qattiq yomg'ir yog'ib turgan edi. Bu yoqqa kelsam, ko'cha qop-qorong'u. Fanorning teshik oynasidan shamol kirib o'chirib qo'ygan. Ana u ariqning bo'yiga borganimda bir nima suvni shapillatardi. Yopiray, nima ekan, deb fanorchamni ariqqa tutsam, mendan ham qari bir kishi ariqdan chiqolmay yotgan ekan. Darrov qo'lidan tortdim, bir amallab chetga chiqardim, hamma yog'i loy, jiq-jiq suv... Keyin yetaklab uyiga eltib qo'ydim" [1,13].

Cholning so'zlaridan bolalar qattiq ta'sirlanadilar. Ammo Qosim cho'loqgina uning so'zlarini yolg'onga chiqarib, inkor etishga intildi. Lekin bolalar bir ovozdan cholning so'zlari rostligini tasdiqlaydilar. Ahmad endi kim yana shuni sindirsa o'sha bolani otaga tutib berishga va'da qildi. Boshqa bolalar ham fonorni boshqa sindirmaslikka so'z beradilar.

Hikoya shunday tasvir bilan yakunlanadi: "Shundan beri, haqiqatan, fanorga hech shikast tegmadi. Hozir shu fanorning o'rnida sim to'r bilan o'ralgan tuxumdan kattaroq elektr lampochkasi yonib turadi. Uning uchun na yoquvchi, na gugurt, na moy kerak. Hech bir bola tegajaklik qilib tosh ham otmaydi. Uning yorug'ida yurganda yoshligimning bir parchasini va Fanorchi otanigina xotirlayman"[1,14].

Hikoyadagi o'zgaralar uchun halovatidan kechgan keksa fanorchi otadagi insoniylik ulug'lanadi. U o'zining halimligi bilan ham bolalarga o'rnak bo'ladi.

Oybekning "Musicha" hikoyasi qushlarni avaylab-asrash, ularga ozor yetkazmaslik haqida. SHuningdek, hikoyada yashash uchun kurashmaslik, tartibsizlik, aqlsizlik kabi illatlar bola tilidan qoralanadi. Hikoya bola tomonidan shunday bayon etish bilan boshlanadi: "Yoshlikdan qushlarning orasida eng yomon ko'rganim musicha edi. Uning na mungli qo'shig'i, na ipak qanoti bor. So'ngra unda "valfajirxon" qaldirg'ochning sho'xligi, moviy ko'klarda o'ynagan raqqos kabutarining ustaligi yo'q. Musicha ahmoq, go'l bir maxluq. Turmush uchun kurashda ham juda no'noq, bolalari uchun durustgina pishiq in ham qurolmaydi. In uchun harvaqt noqulay joy tanlaydi. Tuhum qo'yish uchun bizning oshxonada qanday yaxshi o'rinlar bo'lsa-da, musicha bulardan foydalanmas. Oshxonadagi g'alvirga, qoziqqa osilgan, xurmachaning ustiga bir qancha cho'p-xas keltirib, mukka tushib yota berardi. Shuning uchun bolalarning qo'lida harvaqt qaynoq ko'radigan – musicha"[1,15]. Lekin buvining musichaga bo'lgan muhabbati boshqacha: "Men musichani qancha sevmasam, qancha qiynasa, buvim shuncha muhabbat va hurmat ila ularni muhofaza qilardi. Bilmadim, nimadan? O'zi ham musicha kabi sodda, go'l bo'lganidanmi?" [1,15]. Buvimning musichani qadrlashi bilan bog'liq diniy sababni shunday keltiradi: "Buvim bahor kunlari ayvonning labiga po'stak solib o'tirib, qushlarning fazilatlaridan so'zlab berishni yaxshi ko'rardi. Men uning hamma deganlariga qo'shildim. Ammo musichaga aslo!

—Musicha-suhin qush. Qarg'ishi o'tadi, — der.[1,15].

Bola musichani azablashning yo'lini antiqasini topadi. "Buni buvim har choq qarashimni o'zgartira olmas edi. Men musichalarning bir qanchasini uyga qamab olar, so'ngra hammasini ketma-ket "ko'r mulla" qilardim. Buni ko'rgan buvim qo'lga hassasini olib, hovlida meni quvlar, faqat tezda holloslab xassasiga suyanib qolar va "ko'ngling toshdan ham qattiq!" derdi. Musicha, "ko'rmula" qo'limdan chiqib havoda gandiraklar ekan, ko'zimda shodlik toshar edi"[1,15].

Oybekning "O'yin uchun o'q"(1943) hikoyasi voqealari Ikkinchi jahon urushi davrida bo'lib o'tadi. Uning asosiy qaxramoni o'n ikki yoshli Valodiya bo'lib, u nemislar bosib olgan qishloqda xasta onasi bilan yashaydi. Valodiyaning otasi ikki azamat akasi va opasini nemislar Germaniyaga haydab olib ketganlar. Qishloq manzarasi hikoyada shunday tasvirlanadi: "Dushman bombalari va snoryadlardan mo'jiza qabilida bir nav maskan qiyofani saqlab qolgan bir necha uylar yerga qapishgan uylardan baxtsizroq edi. Vayronalarda hayot yo'q. Bularda esa hayot zindondagi zang

bosgan kishan tovushiday og'ir va ko'ngilsiz" [1,33]. Ana shu holdagi tabiat tasvirini yozuvchi bir chizgi bilan quyidagicha aks ettiradi: "Uzoqda kuz shamoli o'qlar beomon cho'ltoqlagan daraxtlarni asabiy silkitar, yongan, buzilgan uylarning kuli, tuprog'ini sovuradi"[1,33].

Valodiyani hatto onasi ham qishloqda qolgan. Shu bois ham u bu yerdan ketolmaydi. Valodiyani Yurik degan o'rtog'i bo'lib, uning otasi urushda, onasi yong'inda o'lgan. Qari bobosini esa fashistlar asrlikdan qochgan qizil askarga yo'l ko'rsatgani uchun otib tashlaydilar. Yurka shundan so'ng partizanlarga qo'shilib ketgan. Yurkani kaputarlari qolgan bo'lib, ularga Valodiya don berib parvarish qiladi. Bir kuni kaputarlarni parvarish qilayotgan vaqtida nemis ofitseri uni ko'rib qoldi. Uni kabutarlar partizanlarga xabar berishda ayblab, otib tashlashga buyurdi. Hikoya quyidagicha yakunlanadi: "O'q tovushidan hadiksirab, atrofda yig'ilgan to'rt-besh hamqishloq ayollar ofitserning turishini va do'qlarini yuraklarida portlashga tayyor g'azab va sukut bilan tinglashdi-da, ikki nemis uzoqlashgach, bolani xasta onaga bildirmay boshqa joyda hamma rasm-odatlariga muvofiq ko'mishga qaror berishdi. Valodiyani qonga belangan yengil gavdasini avaylab eltarkan ho'ng-ho'ng yig'lab deyishardi:

— O'yin uchun otish! Itlarda vijdon yo'q. Hamma azoblarimiz uchun qasos olamiz. Sening nohaq qoning uchun ham qasos olamiz, chirog'im Valodiya!" [1,35].

Oybek xorijiy xalqlar bolalari hayotini aks ettiruvchi hikoyalar ham yaratgan. Uning "Miskin bolalar"(1958), "Qonli barmoqlar"(1962) hikoyalari buning dalilidir.

"Miskin bolalar" hikoyasi qahramonlari afg'on bolalari – Ilyos va G'ulomdir. Hikoya G'ulom portreti tasviri bilan boshlanadi: "O'n ikki yashar afg'on bolasi, qo'lida xalta, ko'chadan chopqillab ketar edi. Xaltada ikki chorak yog'liq go'sht. Uning boshida kir salla, pechi uzun, yelkada, ko'yilgi kir-qarab bo'lmaydi. Oyoqlari suv tegmaganidan qotib ketgan, kir-qirmoch... Lekin afg'onchani ko'zlari qora, ziyrak, salla ostidan toshgan qo'ng'iroq sochlari quyosh nurida uchqunlanib tovlanadi; burni jumrakday go'zal, ammo jussasi oriq-tiriq, lekin pishiqlik" [1,36]. Ushbu portret tasviri orqali bolaning mashaqqatli yashash tarzi, og'ir hayoti aks etadi. Hikoyada boyvachcha bolalar qiyofasi ularga zid tarzda aks ettiriladi. Ilyosga tengdek bo'lgan bu bolalar kino ko'rishga yo'l olganlar: "Ular yasangan-tusangan, oyoqlarida g'irchillagan xrom etik, boshlarida – birisida oltinrang, ikkinchisida uchqunli qora, uchunchisida jilvali qorako'l popoxlar. Olifta, takubbur, bodqiyofa bolalar"[1,38]. Ular orasidagi oltin rangdagi qorakul popox bola jizzakiligi, qiyshiq tirjayishi bilan mashhur bo'lib, Ilyosning yig'lab o'tirishini ko'rib shunday mazax qiladi: " – Go'rso'xta, ustingdan tayoq yedingmi? – kuldi lablarini xunik cho'zib. Uning qiyshiq-qing'ir tishlari tirjayib ketdi"[1,38]. Ilyosning aytishicha maktabdan qochib yaltiroq mashinalarda, uchqur otlarda sayr etib yurgani yurgan.

G'ulom o'rtog'i Ilyosni bir savat non oldida o'ziga g'amgin o'tirganini ko'radi. Ilyos Shodining do'konida non sotish bilan mashg'ul. Ilyos xo'jayiniga Shodi garang laqabini qo'ygan. Ma'lum bo'lishicha, qishloqdan ota-onasi oldidan kishi kelgan. U onasining qattiq betob ekanini, tez yetib borishi zarurligini aytadi. Ammo do'kon xo'jayini Shodi unga javob bermaydi, deb qo'rqadi Ilyos. Ilyos G'ulomdan Shodi garangga qattiq-qattiq gapirib voqeani tushuntirishni o'tinib so'raydi. Hikoyada ijtimoiy tengsizlik masalasiga katta e'tibor berilgan. G'ulom ham, Ilyos ham o'qishni xohlaydi. Lekin pulning yo'qligi bunga monelik qiladi.

G'ulom Shodi do'kondan Ilyosga javob olib berishning o'ziga xos usulini topadi: "...do'kon atrofida savatingni ko'tarib yur. Lekin shoshma, gap bor. Sen nariroqda turasan, men ustangga aytaman. "Ilyos onam xasta, deb kecha qishloqqa jo'nagan edi, undan xabar olgani keldim", deyman. Usta: " Tavba, suf senga, Ilyos non sotib yuribdi-ku", deydi. Shu choq sen qayrilib kelasan. Albatta garangning ko'ngli eriydi va senga javob beradi. Mana ko'rdingmi, ish tomom. Qo'lingni ber, o'rtoq!"[1,39]. Ilyos bundan xursand bo'ladi. Hikoyada ana shu tariqa Afg'on bolalarning mashaqqatli hayoti aks ettiriladi.

Oybekning chet eldagi bolalar hayotiga oid ushbu hikoyalari 1949 yilning noyabr-dekabr oylarida Pokiston Yozuvchilar uyushmasi taklifiga binoan delegatsiya tarkibida Pokistonga safari asosida yozilgan. Ushbu safar taassurotlari asosida 1951-1955 yillar oralig'ida "Karachida", "Haqgo'ylar", "Pokiston poytaxti", "Pokistonlik ayolga", "Muhojirlar lageri" kabi qator she'rlar bilan birga "Pokiston yo'lida" kundaliklarni ham yozgan. "Kundaliklar"da yozuvining o'sha paytdagi Afg'oniston haqidagi taassurotlari shunday aks etadi: "Qobul davlati poytaxtga asli o'xshamaydi. Shahar kichkina, iflos... Do'konlar chang bulutida, pashshasi undan ham qalin. Poytaxtda bittagina kino. Afg'onistonning o'zga shaharlariga kino ham kirmagan"[1,195].

Yozuvchi “Qonli barmoqlar” hikoyasi ham ana shu safar xotiralari asosida yozilgan bo‘lib, uning qahramoni pokistonlik 9 yoshli Ali ismli bola. Ali sil bilan og‘rigan kasal onasining boqish uchun tilanchilikka chiqqan. XX asrning 50 yillaridagi Pokiston manzarasi, u yerdagi kishilar hayoti hikoyada shunday aks etadi: “Pokiston shaharlarning rastalarida to‘da-to‘da tilanchi bolalar yuradi... Gadoylar odatda “baxshish” deyilsa, o‘zlarini tomdan tashlab yuboradilar. Lekin “baxshish”ni biron kimsa olsa, boshqalari taqdiriga tan berib qolaveradilar. Ammo Pokistonda “baxshish” lug‘ati, ya‘ni uning ma‘nosi o‘zgaradi. Faraz qilaylik: biror ishga xizmat haqqi, sadaqa uchun pul yoki ne‘matlar, turli-tuman narsalar “baxshish” lug‘atiga kiraveradi”[1,41].

Hikoyada Alining holati shunday aks etadi: “Bola rastada yuradi. Tinim yo‘q. Oynali keng - kovul magazinlar, katta do‘konlar va qutichaday do‘konchalar yonida aylangani-aylangan. Bola besholti kungina rastalarda kezadi. U tilanchilikda yangi”[1,40]. SHunda sochlari sariq, baqaloq do‘kondor uni yoniga qichqirib chaqirarkan gulob shishalari siniqlarini axlatxonaga olib borib tashlashni buyuradi. Do‘kondorning bir kichik gulob korxonasi bo‘lib, balki bu shishalar aravadan tushirilganda singan edi. Ish topilganidan xursand bola holati “Ikki-uchtalab shishalarni bola tashidi. Siniq cheti uchgan shishalar va berahm quyoshning issig‘i uni xunob qilar, kichik barmoqlari tilingan, qo‘llari qon. Ammo och, tentirab yurishdan charchagan bola bu xizmatdan vaqti xush. Ali oldida boshqa tilanchi bolalar ham kelishib o‘z yordamlarini taklif etadilar. Lekin u keskin rad javobini beradi. “Baxshish!”, “Omad!” so‘zlarini aytgan bolalar undan yiroqlashadilar.

“Qo‘llarini orqasiga qo‘yib, yumaloq qornini cho‘qqaytirib yurgan do‘kondor “prilavka” ostidagi oz-moz bo‘lgan shishalarga ham olib tashlashni buradi. Barmoqlari “qonda lov-lov yonayotgan” Ali prilavka ostida tog‘dek uyilgan shisha siniqlarini do‘kon bilan axlatxona o‘rtasida sonsiz marta qatnab kuni bo‘yi tashiydi.

Yozuvchi hikoyada Ali tilidan uning otasi haqidagi ma‘lumotlarni beradi. Uning otasi tinchlik uchun kurashgan bo‘lib, qamoqda. Do‘kondor Aliga shishalarni tashib tamomlaganidan so‘ng xizmat haqi “yupqa chapati” ning oldiga uloqtiradi. Ali darhol uni kasal onasiga berish uchun uyi tomon chopadi. U istiqomat qiladigan joy shunday tasvirlanadi: “Gorishov Lohurning bag‘ridagi bir daha. Lohur- ko‘shiklar, gullar diyori. Gorishov esa dahshat! Ali bu xaroba – vayronalar ichida yugurdi. Ko‘cha, yo‘lka deydigan narsalar yo‘q, tutash xarob kulbalar. Shunday xarob ko‘chalarning birisidan Ali bilan onasi, otasi qamalgandan so‘ng haydalib, ko‘chaga tashlangan edi. Oybekning “Pokiston yo‘lida” xotiralari “Ertalab ishilar yashaydigan rayonga bordik... Ishchilar rayonida manzara daxshat! Uylar kaputarxona, itxonadan battar. Qop-qorong‘i kichkina hujralarda, kataklarda butun oila yashaydi. Ba‘zi uylarda odamlar navbat bilan yotishar ekan. Ba‘zi kataklarda ikki oila bola-chaqalar bilan yashashga majbur. Mahallalar bu yerda chumoli iniday. Bolalarning ust-boshiga qarab bo‘lmaydi... Bu rayonda daraxt yo‘q, kino yo‘q... . Hammaning egnida uvada, hamma kasalbashara. Ayniqsa, bolalar xarob... “Gorishov” aholisi ozodlik uchun kurashuv kerakligini biladi...” [1,212-213].

Ali harsillab, onasi oldiga yetganda qo‘shnilaridan bir kampir qovoq solib o‘tirganini, onasi esa vafot etganini ko‘radi. Hikoya shunday satr bilan yakunlanadi: “Bola cho‘kka tushib, onasini quchoqladi, qon qo‘llari bilan sariq yuzini siladi”[1,42].

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, “Oybek kichik so‘z maydonida ulkan voqelikni, mukammal obrazlarni yaratgan beqiyos iste‘dod sohibi”[2,58]. Shuningdek, “Respublikamiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ulkan evrilishlar jahon madaniyatida munosib o‘ringa ega bo‘lgan adabiyotimiz oldiga qator vazifalar qo‘ydi”[3,6]. Bu Oybekning bolalarga atalgan asarlarini ham chuqur o‘rganib xolis baholashni ham talab etmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. O‘n to‘qqiz tomli. O‘n ikkinchi tom. – Toshkent: Fan, 1978.
2. Sabirdinov A. Oybek she‘riyatida so‘z va obraz. – Toshkent: “Akademnashr”, 2010.
3. Sabirdinov A. Oybekning poetik mahorati. – Toshkent: “Clebe”, 2020.